

## **THE IMPORTANCE OF RABBITS IN THE NATIONAL ECONOMY AND THE BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF RABBITS**

**Erkinova Latofat Umidjon qizi**

Tashkent branch of Samarkand Institute of Veterinary Medicine  
doctoral student  
+998933799444  
[latofat.erkinova.94@gmail.com](mailto:latofat.erkinova.94@gmail.com)

### **Annotation.**

Gradual transition to a market economy of independent Uzbekistan at a time when the population is growing in food, each of the livestock to meet the demand for clothing. The effective use of a field is the key in front of professionals is one of the functions. Livestock plays an important role in the national economy of our country.is one of the main branches of agricultural production.

Livestock is a staple food such as meat, milk and eggs products, provide industrial enterprises with the necessary raw materials. In this regard, rabbit breeding is one of the most important branches of animal husbandry is one.

**Keywords:** rabbit, tivist, fur, protein, cholesterol, rabbit breed.

## **QUYONCHILIKNING XALQ XO‘JALIGIDAGI AHAMIYATI VA QUYONLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA KELIB CHIQISHI**

**Erkinova Latofat Umidjon qizi**

Samarqand veterinariya meditsinasi instituti Toshkent filiali  
tayanch doktoranti  
[+998933799444](tel:+998933799444)  
[latofat.erkinova.94@gmail.com](mailto:latofat.erkinova.94@gmail.com)

### **Annotatsiya.**

Mustaqil O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish yo‘liga kirgan bir paytda aholini kun sayin oshib borayotgan oziq-ovqatga, kiyim kechakka bo‘lgan talablarni qondirish borasida chorvachilikning har bir sohasidagi unumli foydalanish mutaxassislarning oldidagi asosiy vazifalaridandir.

Chorvachilik mamlakatimiz xalq xo‘jaligida muhim o‘rinni egallab, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan hisoblanadi. Chorvachilik aholini hayotiy zarur bo‘lgan go‘sht, sut, tuxum kabi oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat korxonalarini zaruriy xomashyo bilan ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan ham quyonchilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biridir.

**Kalit so‘zlar:** quyonchilik, tivist, mo‘yna, oqsillar, xolesterin, quyon zotlari.

Quyonchilik - chorvachilikning tez yetiluvchan, serpusht, sermahsul tarmoqlaridan biridir. Bu tarmoqdan kam mehnat va ozuqa sarflab parxez go‘sht, sifatli teri, mayin tivist va boshqa mahsulotlar yetishtirish mumkin. Quyonlar bundan 2000 yillar ilgari xonakilashtirish asosida yaralgan bo‘lib, yovvoyi quyonlarning asl vatani O‘rta yer, Qora dengiz atrofida muloyim iqlimli xududlar hisoblanadi. Dastlab Ispaniya, Fransiyada yashagan. Xonakilashtirilgandan keyin butun Yevropa, Osiyo, Avstraliya va Amerika qit’alariga tarqalgan. Osiyo va Yevropaning ko‘pgina xududlarida quyonlarning yovvoyi ajdodlarini hozirgi

paytda ham uchratish mumkin. "Ispaniya" so'zi "Quyonlar qirg'og'i" ma'nosini anglatadi. Yovvoyi quyon bilan uy quyonining farqi bor.

Yovvoyi quyonlar mahalliy hududlarimiz sharoitida yiliga 2-3 marta 3-5 boshdan ko'zi ochiq, tuk bilan qoplangan, bemalol yuradigan bola tug'adi. Uy quyonlaridan yiliga 5-6 marta bola olish mo'ljallanadi. Bolalashda 6-12 tagacha ko'zi yumiq, junsiz bola tug'adi. 3 kunlikdan keyingi jun belgilari ko'rindi. 6-7 kunlikda tivit bilan qoplanadi, 10-14 kunligida ularning ko'zi ochilib, 17-20 kunlikda uyadan chiqadi. Quyon bolalarini 45-60 kunlik davrida onasidan ajratish maqsadga muvofiqli. Ona quyon suti ularda 2-3 kungacha ajraladi. Ona quyonlar bir kecha-kunduzda 100-180 g, ba'zan 200-270 g miqdorda sut ajratadilar. Sutdorlik 22-24 kungacha davom etib keyin susayadi. Havo harorati 15-25C bo'lganda quyonlar o'z tanasidan ortiqcha issiqlik ajratmasligi, harorat pasayganda iste'mol qilingan oziqa energiyasini bir qismini tanadan issiqlik chiqarishga sarflashi aniqlangan. Nafas olishi havoning salqin kunlarida minutiga 50-60 martani tashkil etsa, harorat 35Cdan oshishi bilan nafas olish tezligi minutiga 280-282 martaga oshadi. Quyonlar o'zining barcha biologik xususiyatlariga ko'ra tashki muhitning ko'plab ta'sirlari (shovqin, issiqlik, sovuqlik, shamol, oziqa)ga, bo'lgan javobi yuqori bo'ladi.

Yer yuzida hozirgacha yaratilgan quyon zotlari 60 dan ziyotdir. Mamlakatimizda hozirgi paytda sovet shinshilasi, ulkan kulrang, oq o'lka kumushsimon, Vena havorangi, sovet mardyori, kapalak, oq tivitli zotlar urchitilmoxda.

O'zbekiston Markazi Osiyo hududida har tomonlama e'tiborga taaluqli bo'lishidan tashqari, tabiiy iqlimi tez o'zgaruvchan, ya'ni yozi issiq, qishi keskin sovub ketuvchi hisoblanadi. Shuning uchun chorva mollarining, shu jumladan quyonlarning ham urchitiladigan zotlari sinovdan o'tkazilishi lozim. Hozirgi bizning sharoitimizga moslashib urchitilayotgan bir nechta quyon zotlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

### **QORA QO'NG'IR** quyon zoti 1942-1948 yillar davomida Tataristonning

"Viryuli" mo'ynachilik sovxoziда seleksioner F.V.Nikitin tomonidan yaratilgan. Unda asosan ok ulkan, flandr va vena havorang zotli quyonlarning o'zaro chatishtirish bilan yaratiladi. Qora - qo'ng'ir quyon zotini tanasi asosan qoramtil qo'ng'ir bo'lib, dag'al kiltik va oraliq jun tolalarining uch qismi qopqoralari ham uchraydi. Mo'ynasidagi ayrim ranglar 7-8 oyligidan boshlab o'zgaradi. Voyaga yetgan quyonlarning o'rtacha vazni 5 kg (3,6 dan 6,6 gacha) atrofida bo'ladi. 8 tagacha bolalydi. Mo'ynasi tig'iz junli bo'lib rangi chiroyli, buyamasdan tabiiy holda kiyimga foydalaniladi. Gavdasi uzun, suyaklari mustahkam, yirik, qulog'i uzun, ko'kragi keng va chuqur, orqasi to'g'ri va keng, sagrasi keng, go'shtorligi yaxshi, serpushtligi, sutforligi va yetiluvchanligi o'rtacha. O'rta Osiyo va O'zbekistonda rejali zot hisoblanadi.

**VENA HAVORANG** quyon zoti go'sht-teri yo'nalishidagi kattaligi jihatidan o'rtacha quyondir. Bu zot XIX-asr oxirlarida Avstriya mamlakatidagi xo'jaliklarda mahalliy havorang quyonlarni belgiya ulkan quyonini bilan chatishtirish natijasida yaratiladi va 1895 yili mamlakat poytaxti Vena shaxxining nomi bilan zot sifatida qabul qilingan. Rossiya va boshqa xAMDUSTLIK mamlakatlar Germaniyadan keltirilgan. Tanasi kulrang va havorang, ba'zan qizg'ish havorangli, och va tuk rangbarangliklari mavjud. Dog'lar va qora rangli jun tolalari uchramaydi. Tirik vazni o'rtacha 4,3 kg (3,8-5 kg) bo'lib, ayrim holatda 7 kg ga yetadi. Tashqi muhit, oziqlanish sharoitiga yaxshi moslashaoladi. Serpushtligi o'rtacha qisqa vaqt ichida semira oladi. Yetiluvchanligi yaxshi. Go'sht chiqimi 56,9-59,8% gacha yetadi. Bizning xududimizda urchish mumkin, biroq hozircha juda kam urchitilmoxda.

**KAPALAK** quyon zoti 1887 yilda Angliyada dekorativ (bezak. Kungiloluvchi) zot sifatida yaratilgan, vazni jihatidan o'rtacha zot hisoblanadi. Mahalliy xududlarimizda keng tarqalgan. Tanasi ok. lekin tanasining ikki tomonida simmetrik kora doglar mavjud. Ayrim vakillarining tanasidagi dog'lar jigarrang kulrang bo'lishi ham kuzatilgan. Voyaga yetganlarining tirik vazni o'rtacha 4,3 kg. Tanasi qisqarok bo'lib 35 sm, ko'krak aylanasi 36 sm. Konstitutsiyasi pishiq, go'sht mahsuldarligi vazniga nisbatan yaxshi. Ona quyonlari serpusht, sersut, ya'ni bolali tez yetiladi. Shuning uchun ba'zi tumanlarda broyler go'sht maqsadida foydalaniladi.

Quyon go'shti juda muloyim, xushtam, chunki parranda go'shtiga nisbatan xam to'liq qiymatli oqsillarga boy. Shuning uchun yosh bolalariga, keksalarga, bemorlarga va xaddan ziyod semirgan kishilarga ham shifoli, parvez oziqovqat hisoblanadi. Tarkibidagi oqsil jihatidan faqat kurka jujasi go'shtidan orqada qolishi mumkin. Cho'chqa go'shtiga nisbatan esa suv miqdori ham, quruq moddasi ham ko'p. Quyon go'shti oqsilini 90% kishi uzlashtirib oladi. Qoramol go'shtidan esa faqat 62% gacha uzlashtira oladi. Quyon yogi tez eruvchan, sifati bo'yicha qoramol, cho'chqa, kuy yoglaridan ustunroq turadi. Quyon go'shtidan parranda

go'shtiga nisbatan natriy moddasi 2,7 marta, buzoq go'shtidan esa 2,4 marta kam.

Bu narsa xolesterinmoddasini kamayishiga, go'shtining shifobaxshligiga sabab bo'ladi. Quyonlarning tirik vazniga nisbatan 70% ni, qoramollarda esa 42-50%ni mushak tolasi tashkil etadi. Suyak va tog'aylar quyonlarda 13-36% tashkil esta, qoramol gavda go'shtining 18-30% ni tashkil etadi. Quyon bolalari 70 kunlikda broyler go'shti uchun so'yilib, go'shtining tarkibida 22% gacha oqsil, 5% gacha yog, tirik vazni esa 2 kg atrofida bo'ladi. Voyaga yetgan quyonlar go'shtidan 19-21% oqsillar, yog esa semiligiga ko'ra 2-18% gacha bo'lishi mumkin. Turli hayvonlarning 100 g yog'i va go'shti tarkibidagi xolesterining miqdori quyidagicha:

Mol yog'ida -1,25 g. Qo'y yog'ida -1,40 g. Cho'chqa yog'ida -0,33 g. Buzoq go'shtida -0,11 g. Quyon go'shtidan -0,4 g.

Xulosa qilib aytganda quyon har tomonlama foydali, daromadli, mahsuldor hayvon hisoblanadi. Quyon veterinariya va meditsinada, xatto kosmanavtikada eng qulay labaratoriya hayvoni sifatida foydalanib kelinmoqda.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. "Quyonchilik va mo'ynachilik" fanidan ma'ruzalar matni. Sh.Q.Amirov.

**Internet saytlari:**

1. <http://www.ziyonet.uz>.
2. <http://www.Crome.uz>.
3. <http://www.Google.uz>.
4. <http://www.arxiv.uz>.
5. <http://svmi.tf.uz>.